ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Nozliya Normurodova**
Samixon Ashirboyev
Abdumurod Tilavov

Mas’ul kotib: Anvarbek Turdialiyev

Tahrir kengashi

Mominova Bag‘dan (Ostona), Mingboyev Nurlon (Chimkent), Ercan Alkaya (Turkiya), Turdimov Shomirza (O‘zRFA), Jo‘raqoziyev Nodirjon (VM), Alniyazov Ayitmurat (Nukus), Xolmanova Zulxumor (ToshDO‘TAU), Ibrohimov Yo‘ldosh (Nukus), Saidqulov Ilhom (ToshDO‘TAU), Murodova Nigora (Navoiy), Jabborov Xo‘jamurod (Qarshi), Darvishev Ibrohim (Namangan), Aliqulova Hulkar (ToshDO‘TAU), Xidraliyeva Zoxira (ToshDO‘TAU), Norboyeva Shukurjon (Urganch), Rahmonov Navro‘z (Navoiy), Ibragimova Zamira (Nukus), Hakimova Muhayyo ToshDO‘TAU), Umurzoqova Marhabo (ToshDO‘TAU), Ubaydullayev Alisher (O‘zMU), Alimardanov Elyor (ToshDO‘TAU), Egamqulov Kamoliddin (ToshDO‘TAU), Qodirov Umarjon (ToshDO‘TAU), Sayfullayev Baurjon (O‘zMPU).

“O‘zbekiston: til va madaniyat jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-oktabrdagi № 308/6-sonli qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. “O‘zbekiston: til va madaniyat jurnalining “Folklorshunoslik. Shevashunoslik” seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro‘yxatidagi “O‘zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, o‘zbek folklorining dolzarb masalalari, o‘zbek dostonchiligi, jahon folklori, folklor janrlari, turkiy xalqlar folklori, folklor va yozma adabiyot, adabiyotimizdagi folklor motivlari, o‘zbek shevalarining fonetik, grammatik va leksik xususiyatlari, tarixiy dialektologiya, shevalarning sotsiolingvistik talqini, areal lingvistika, folklor dialektologiyasi, adabiy til va sheva munosabatlari, sheva ma’lumotlarini o‘zbek tili korpusiga teglash, dialektologiyaning nazariy asoslari, jahon dialektologiyasidagi ilg‘or g‘oyalarga oid tadqiqot natijalari nashr qilinadi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e’lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e’lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-un.uz

MUNDARIJA

Shevashunoslik

Marifatxon Anarbayeva
Turk-Barlos urug‘i nutqida saqlanib qolgan qadimiy turkiy lahja elementlari (Marhamat tumani misolida) 6

Adolat Bekturdiyeva
O‘g‘uz lahjasidagi so‘z birikmalari va yondosh til birliklari 13

Muattarxon Turdixo‘jayeva
O‘zbek tili milliy lingvistik atlasini yaratish tamoyillari 22

Feruza Aminova
Matnazar Abdulhakim she’riyatida morfologik dialektizmlarning aks ettirilishi 29

Durdona Ermatova
The historical development and modern aspects of evidentiality in uzbek language 36

Nazirov Salimbek
Ingliz va o‘zbek tillaridagi ertaklarda uchraydigan barqaror birikmalarni muqobillashtirish masalalari 48

Dilnavoz Asatullayeva
Umumta’lim maktablarida morfonologiyani o‘qitish metodikasi (yozma va og‘zaki nutq misollari asosida) 55

Dilso‘z Rahmonova
Samarqand qipchoq shevalarining areallari 62

Islom Bo‘riyev
Iboralar komponentlari tahlili: O‘TIL (6 jildli; 2022) materiallari asosida 70

Gavhar Toshtemirova
“Gulnor pari” dostonining fonetik -leksik xususiyatlari 80

Rustam Esanov
Xalq ertaklarida qo‘laniladigan ramzlarning lingvistik xususiyatlari . 88

Botir Raxmonov
Til va madaniyat munosabati, etnodialektal birliklarning lingvomadaniy talqini 97

Hayotxon Salayeva
Gurlan leksikasidagi ayrim so‘zlarning “Devonu lug‘otit turk” asari bilan qiyosi 105

Sadoqat Rajabova
Ishtixon shevasining o‘z va o‘zlashma qatlam leksikasi 116

Shahlo Ahmadjonova
Namangan qarluq shevalarining fonetik xususiyatlari va areal lingvistik o‘ziga xosliklari 129

Shirinoy Shuhratova
O‘zbek shevalarida kulolchilik terminlarining o‘rganilishi 138

Uzbekistan: Language and Culture 2025/2
ISSN 2181-922X 62 — 69

SAMARQAND QIPCHOQ SHEVALARINING AREALLARI

Dilsoʻz Rahmonova[1]

Abstrakt

Ushbu maqola Samarqand viloyati qipchoq lahjasining oʻrganilish tarixini yoritib berilgan. Dialektolog tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlar va erishilgan natijalar tahlil qilingan. Shuningdek, qipchoq guruh shevasining tasniflarda kelishi, xususan, Samarqand viloyati qipchoq guruh shevalari haqida, ularning areallari haqida fikr yuritilgan. Maqolada Samarqand areali boʻyicha shu davrgacha qilingan ilmiy ishlar tahlilga tortilib, ularga munosabat bildirilgan. Lahjaning oʻziga xos jihatlari misollar yordamida tushuntirildi. Tadqiqot natijalari Samarqand viloyati qipchoq lahjasining oʻzbek tilshunosligi uchun ahamiyatini koʻrsatadi. Shu bilan birga, kelajakda lahjani yanada chuqurroq oʻrganish zarurati taʼkidlanadi.

Kalit soʻzlar: arel, qipchoq lahjasi, sharqiy guruh, gʻarbiy guruh, janubiy guruh, leksik xususiyatlar.

Turkiy tillarning aksariyat qadimgi turkiy etnik urugʻ va qabilalarning biri negizida shakllanganligi tarixda oʻz aksini topgan, jumladan, qozoqlar, qirgʻizlar va Sibirdagi turkiy xalqlar tillari qipchoq, ozarbayjon, turkman, turk, gagauz kabi tillar oʻgʻuz, uygʻurlar esa qarluq urugʻ va qabilalar tili negizida shakllangan boʻlsa, oʻzbek tili har uchala etnik guruhlar tilining birlashishi asosida tarkib topgan. Shuning uchun ham bugungi oʻzbek tilida har uchala etnik guruh tillariga xos xususiyatlar saqlanib qolmoqda hamda ular oʻzbek tilining uch lahjasini vujudga keltirgan. Etnograf olim Karim Shoniyozovning koʻrsatishicha, Qipchoq qabilalari, asosan, Oltoy oʻlkasida, Irtish daryosi boʻylarida yashaganlar va keyinchalik ular Sibir, Gurjiston oʻlkalarida, Volga, Dunay daryolari boʻylari hamda Markaziy Osiyoga tarqalganlar [Шаниязов 1974;47]. Sh.Shoabdurahmonov esa oʻzbek tili dialektal rang-barangligini oʻzbek xalqining shakllanish jarayoni bilan bogʻlab, uning tilida uchraydigan fonetik, leksik va Grammatik xususiyatlar turkiy qabilalarning oldinma keyin koʻchishi hisobiga yuz berganligini taʼkidlaydi. Uningcha, dastlab qarluqlar, soʻng oʻgʻuzlar, undan keyinroq qipchoqlarning Markaziy Osiyoga kelishi oʻzbeklar dialektal tarkibining shakllanishiga olib

[1]*Dilsoʻz Rahmonova* – Alisher Navoiy nomidagi ToshDOʻTAU universiteti Folklorshunoslik va dialektiktalogiya mutaxassisligi magistranti
E-pochta: rahmonovadilsoz410@gmail.com
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0004-8346-6136
Iqtibos uchun: *Rahmonova D.* 2025. *"Samarqand qipchoq shevalarining areallari".* Oʻzbekiston. til va madaniyat. Folklorshunoslik. Shevashunoslik. 2: 62-69.
Doi. 10.52773/tsuull.uzlcfolklore.2025/LNVM9113

kelgan [Шоабдураҳмонов 1962;8].

XX asrning 20-30-yillarida oʻzbek xalq shevalarini oʻrganish eng dolzarb masalalardan biri hisoblangan. Ayni shu yillarda juda koʻplab dialektolog olimlar yetishib chiqqan va oʻzbek shevalarining turli metod va metodologiyasini shakllanishiga sababchi boʻlgan edi. Bular oʻzbek va rus turkologlaridan Y.D.Polivanov, Gʻ.O.Yunus, A.K.Borovkov, K.K.Yudaxin,V.V.Reshetov va boshqa olimlardir. XX asrning 50-yillaridan mustaqillik yillarigacha boʻlgan davrda ham oʻzbek xalq shevalarini oʻrganish tilshunoslikda eng dolzarb masalalardan bir boʻlib qoldi bu davrda Sh.Shoabdurahmonov, S.Ibrohimov, B.Joʻraev, A.Aliev, A.Shermatov, V.Egamov, H.Gʻulomov, X.Doniyorov, M.Mirzaev, I.Shamsiddinov, Q.Muhammadjonov, A.Joʻraev, J.Mamatqulov, X.Joʻrayev, S.Raximov, T.Qudratov, A.Ishayev, F.Abdulayev, F.Abdullayev, M.Mirzayev, T.Turgʻunov, Sh.Nosirov, Y.Ibragimov, N.Murodovalarning ishlari diqqatga molikdir. Bu olimlar oʻz tadqiqotlarida oʻzbek shevalarini fonetik, morfologik, leksik hamda qiyosiy tahlil etishning ilmiy asoslarini yaratib berdilar. Oʻzbek tili qipchoq lahjasining lisoniy xususiyatlari boʻyicha ham oʻzbek shevashunosligida bir qancha ishlar amalga oshirilgan. F.Abdullayevning «Namangan qipchoq dialekti», V.Egamovning «Oʻzbek tili Gʻallaorol shevalari», X.Doniyorovning «Oʻzbek tili Baxmal shevalari», M.Valiyevning «Oʻzbek tili Nayman shevalari», J.Mamatqulovning «Sherobod ǯ-lovchi shevalar», X.Alimurodovning «Quyi Surxondaryo shevalari» va b. shular jumlasidan.

Samarqand viloyati eng qadimiy shahar, madaniyat oʻchoqlaridan biri boʻlib bugungi kunda ham iqtsodiy rivojlangan shaharlardan biri hisoblanadi. Viloyat tarkibida Bulungʻur, Ishtixon, Jomboy, Kattaqoʻrgʻon, Qoʻshrabot, Narpay, Nurobod, Oqdaryo, Paxtachi, Payariq, Pastadargʻom, Samarqand, Toyloq, Urgut tumanlaridan tashkil topgan. Viloyatning markazi Samarqand shahri hisoblanadi.

Samarqand viloyati shimoldan Navoiy viloyatining Nurota tumani, shimoli gʻarbdan Xatirchi, Karmana, gʻarbdan esa Qiziltepa tumanlari bilan hamda Qashqadaryo viloyatining Muborak, Koson, Chiroqchi, Kitob tumanlari bilan chegaradosh boʻlsa, sharqda Tojikistonning Sugʻd viloyati (Panjikent tumani), shimoli-sharqda Jizzax viloyatining Baxmal, Gʻallaorol, va Forish tumanlari bilan chegaradosh hisoblanadi. Hudud aholisining asosiy qismini oʻzbeklar 88 foizi, tojiklar 8 foiz (asosan shahar va shahar atroflarida istiqomat qilishadi), ruslar, qozoqlar, qirgʻizlar, ozarbayjonlar, turkmanlar, ukrain, tatar, koreys, yahudiy, armanlar va boshqa kam sonli boshqa millat vakillari 4 foizni tashkil qiladi.

Samarqand viloyatining deyarli barcha tumanlarida qipchoq lahjasi vakillari yashashligi kuzatishlarimizda va Samarqand viloyati shevalari boʻyicha qilingan ilmiy tadqiqot hamda maqolalarda oʻz aksini topgan.

Samarqand qipchoq shevalarining areallarini belgilashda dastlab Xudoyberdi Doniyorovning qipchoq lahjalari joylashuvi (klasifikatsiya) haqidagi fikrlarini keltirishni oʻrinli deb bildik. Dialeklog qipchoq dialektlarini tiplarga ajratishda, shu davrgacha qilingan tadqiqot ishlarini asos qilib olganligini ta’kidlaydi

[Doniyorov 1979].

X.Doniyorov umuman Oʻzbek qipchoq lahjasining klassifikatsiyasini amalga oshirganda markaz sifati Samarqand shahrini belgilash fikrini ilgari suradi. Olim Qipchoq dialektlari va shevalarini 5 tipga boʻladi.

1. Qipchoq shevalarining Sharqiy guruhi (Sharqiy qipchoq dialekti). Bu guruhga olim Samarqand shahri va uning atrofidan sharq tomonga Bekobod tumanigacha boʻlgan hududda tarqalgan qipchoq shevalarini kiritgan. Bu guruhga Samarqand viloyatining Jom, Bulungʻur tumanlarining barcha qismi, Payariq, Urgut tumanlarining bir qismi, Jizzax viloyatining Baxmal, Gʻallaorol, Zomin tumanlarining barcha qismi, Jizzax va Forish tumanlarining baʼzi hududlari kiradi. Sirdaryo viloyatining koʻpgina qismi kiradi. Masalan: Xovos tumanining Soʻloqli, ErganakliOʻyuvli, Mugʻal, Uvot, Bayot qishloqlari. Uvoq qishlogʻi Tojikiston chegarasidagi qishloqlardan biri. Bundan tashqari Qoʻqoni, Qarapchi qishloqlari ham shu guruhga kiradi bu qishloqlar Xavos tumanining sharqiy qismida joylashgan. Xavos va Bekobod tumanlarini oʻrtasida joylashgan Michurin qishlogʻi (savxoz), Tojikiston respublikasining Navgandi Uyas, Parchayuz, Oʻyuvli, Toʻqqiz chelak, Boyovut qishloq shevalari, Kirov qishlogʻi, qadimgi Darvozaqir, Quyuqtepa qishloq shevalari, Guliston tumanidagi Boyovut, Yettiurugʻ va Parchayuz qishloq shevalari, Kamsamol[1] tumanining Parchayuz qishloq shevalari kiradi.

Toshkent viloyati Bekobod tumanidagi Uyas, Nayman Uyas, Toʻqboy, Qiyot, Parchayuz, Ochamayli, Qoʻshtamgʻali, Turkman va Segizsari qishloq shevalari kiradi. Bu qishloqlar Sirdaryoning chap qirgʻogʻida joylashgan. Shuningdek, Sirdaryoning oʻng qirgʻogʻida joylashgan qipchoq shevalari, qisman Oqqoʻrgʻon, Boʻka tumanidagi baʼzi qishloq qipchoq shevalari ham kiradi.

Jizzax viloyatining Baxmal tumanidagi Qirqqishloq, Solin-Uyas, Baxmal (Palaxmon) Tanga topti, Moʻgʻol, Jarbuloq Uyas, Soybo'yi Saroy, Nushkent, Oʻsmatturk, Gʻallaorol tumanidagiuzunbuloq, Chuvalloq, Qashqabuloq, Chayani Uyas, Moltop, Qangli va b., Forish tumanidagi Qarabdal, Qoratosh, va Bogʻdon qishloqlari; Jizzax tumanidagi Jayilama Uyas, Rovot, Qipchoq, Oʻroqli, Soʻloqli qishloqlari; Zomin tumanidagi Beshkubi, Ogʻar, Chetariq Uyas, Soʻloqli Uyas, Boymoqli, Sirgʻali, Turkman, Jaloyir, Beshjuz, Achchi, Moʻgʻal, Neboʻsa, Soʻloqli, Nayman qishloqlari; Samarqand viloyati urgut tumanidagi Jartepa, Olaxotin, Kenagas, Barlos(Qoratepa) qishloqlari; Payariq tumani Chaprashli, Burqut, Chelak qishloqlari; Jomboy tumani Qangli, Bahrin qishloqlari; Bulungʻurdagi Tuyoqli,Qirq, Qoʻngʻirot, Oqtepa qishloqlari, Samarqand tumanidagi Qoranayman qishloq qipchoq shevalari shu guruh shevalari hisoblanadi. Dialektolog X.Doniyorov yuqorida sanalgan hududlarda yashaydigan boshqa qipchoq shevalarini tojik tili va qarluq guruh shevalar bilan aralashganligi sababli Sharqiy guruh shevalariga kiritmaganligini taʼkidlaydi [Doniyorov 1979;10].

[1] Bu hududlarning nomlanishi hozirgi kunda oʻzgargan boʻlishi mumkin. Keltirilgan maʼlumotlar 1979-yilga taalluqli.

[2]Bu davrda Navoiy viloyati Buxoro tarkibida boʻlgan.

2. G‘arbiy guruh qipchoq shevalari (G‘arbiy qipchoq dialekti). Bu guruh shevalari asosan Samarqand shahrining G‘arbga tomon qismi, Buxoro viloyatining[1] Navoiy, Qiziltepa tumanlaridagi qipchoq shevalari kiradi. Bu guruh shevalari Pastdarg‘om, Sovetabod, Kattaqo‘rg‘on, Narpay, Paxtachi, Xatirchi tumanlari qishloq shevalari, Nurota, Ishtixon, Oqdaryo, Payariq tuman qipchoq shevalari kiradi.

Sharqiy va G‘arbiy guruh qipchoq shevalarining asosiy farqi bu G‘arbiy guruh qipchoq shevalariga Samarqand-Buxoro shahar tip shevalari va tojik tilining ta’siridir.

3. Farg‘ona guruh qipchoq shevalari (Farg‘ona vodiysi qipchoq shevalari). Bu guruhga kiruvchi qipchoq guruh shevalari Farg‘ona viloyati, Andijon, Shahrixon, Asaka atroflari, Uychi, Toshloq, Baliqchi, Yangiqo‘rg‘on, Uchqerg‘on, Zadaryo, Qo‘qon shahri atroflarida uchraydi. Bu guruh shevalari qarluq guruh shevalarning ta’siri yuqoriligi bilan boshqa qipchoq shevalardan tubdan farq qiladi. Aholining nisbatan zich yashashi Farg‘ona vodiysida yashovchi qipchoq sheva vakillari shevasi kuchli ta’sir qilmasdan qolmagan. Bundan tashqari shevalar integratsiyasiga Farg‘onada yashovchi Uyg‘urlarning ham ta’siri sezilarni darajada mavjud. Bu guruh shevalariga Tojikistonning Leninobod viloyati ba’zi qipchoq shevalari ham kiradi. Shuningdek bu guruhga Janubiy Qirg‘izistondagi qipchoq shevalarni ham kiritish mumnkin.

4. Janubiy guruh qipchoq shevalari (Janubiy qipchoq dialekti). Janubiy qipchoq dialektiga kiruvchi shevalar Qashqadaryo, Surxondaryo viloyat shevalari, shuningdek, Tojikiston respublikasining janubiy tumanlariga tarqalgan. Shu alohida ta’kidlash kerakki, yuqorida sanalgan hudud shevalari qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasiga kiruvchi shevalarni aytmaganda deyarli o‘rganilmagan. Qipchoq dialektining bu guruhi ham Sharqiy guruh singari o‘ziga xos sheva xususiyatlarini saqlagan shevalar hisoblanadi. Biz bu hukmni o‘zimizgacha ma’lum bo‘lgan ishlardan kelib chiqib bayon qilyapmiz [Doniyorov 1979;12].

5. Qipchoq shevalarining Shimoliy Xorazm guruhi. Shimoliy Xorazm qipchoq dialekti. Bu guruh shevalari o‘g‘uz lahjasining ta’siri hamda o‘g‘uz elementlarining yuqoriligi bilan boshqa qipchoq guruh shevalardan farq qiladi. Bu guruh shevalarini Y.D.Polivanov, F.A.Abdullayev, A.Ishayev kabi olimlar o‘rgangan. Bizningcha bu guruh shevalariga Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalar ham kiradi [Doniyorov 1979;12].

X.Doniyorovning ushbu tasnifiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak Samarqand viloyatining barcha areallarida qipchoq guruh shevalari mavjud va bu shevalar joylashgan o‘rniga hamda atrof shevalari yoki tojik tilining ta’siriga uchrash uchramasligiga qarab guruhlarga bo‘lingan. To‘g‘ri X.Doniyorov sanab o‘tgan qishloq va tumanlarning nomi va hozirgi kunda shuh nomlar bilan atalmasligi mumkin. Bundan tashqari viloyat hududlari, chegaralari ham o‘zgarib yuqorida sanalgan ba’zi qishloqlar boshqa tuman tarkibida bo‘lishi ham mumkin.

O‘zbek shevalarini tasnif qilgan olimlardan Y.D.Polivanov[2]

[1]Y.D.Polivanovning 1928-yilda yozilgan “Samarqand shevasi” risolasi mavjudligi haqida ma’lumot oldik, lekin ishni kutubxonalardan topib foydalanish imkoni

tasnifida Samarqand shevalarini Chigʻatoy lahjasi tarkibida sanab oʻtgan boʻlsa, A.K.Borovkov Samarqand shevalarini 2 guruhini keltiradi. 1-Oʻrta oʻzbek dialekti (qarluq lahjasi), 2-Shayboniy oʻzbek yoki "ǯ" lovchi dialekti. Bizning tadqiqot ishimiz A.K.Borovkovning tasnifidagi 2-guruh shevalariga toʻgʻri keladi [Ashirboyev 2021;116].

Dialektolog V.V.Reshetov oʻzbek shevalarini tasnif qilishda Samarqand shevalarini shahar va shahar tipidagi shevalari Samarqand-Buxoro guruh shevalari deb nomlasa, umumiy oʻzbek qipchoq shevalarini «Qipchoq» lahjasi deb nomlaydi.

Yuqoridagi tasniflardan koʻrinib turibdiki, Dialektolog olimlar tasnifida Samarqand arealida joylashgan qipchoq shevalarining joylashuvi aniq koʻrsatilmagan, X.Doniyorovning tasnifi esa bundan farq qiladi. Olim, nafaqat, Samarqand viloyati balki oʻzigacha boʻlgan davrda qilingan ishlarni tahlil qilib oʻzbek qipchoq lahjasining tarqalish areallarini joylashuvini aniq faktlar bilan koʻrsatib bergan.

"Oʻzbek tilining qirq shevasi" boʻyicha tadqiqot olib borgan dialektolog T.Z.Mirsoatov Samarqand viloyati Bulungʻur tumanida yashovchi qirq urugʻi shevalariga bagʻishlangan tadqiqoti Samarqand viloyati qipchoq areallarida yashovchi urugʻlar va ularning shevalari haqida ma'lumot keltiriladi. Arealda yuz, qirq, qipchoq, tuyoqli, qoraqalpoq, metan, qoʻngʻirot, chuyut, achamayli, boʻgajin, qiyot, baxrin, erganakli urugʻlari yashashligi, bu arael shevasi unlilar tizimi mustaqil 10ta fonemadan a-ä, o-ö, u-ü, ï-i, e-e (e tovushining ikki varianti old qator va orqa qator variantini keltiradi [Mirsoatov 1957;233]) iboratligi, areal shevasida lab garmoniyasi kuchli saqlanganligini ba'zi oʻrinlarda singarmoniz buzilishi rus tili ta'sirida yuz berayotgaligi haqida toʻxtaladi [Mirsoatov 1957;231].

Oʻzbek shevashunoslik tarixiga nazar tashlaydigan boʻlsak, umuman qipchoqlar tarixiga toʻxtalganimizda, albatta, M.Qoshgʻariyning "Devonu lugʻatit-turk" asaridagi ma'lumotlarni keltirishimiz asosli boʻldi. Devonda qipchoq qabilalari Turpon (Turfon), Qashqarda yashaganliklarini va ular **kimak//imak (yimak)** davlati tarkibida boʻlganligi haqida ma'lumot berilgan [Девону луғатит турк 1960;428]. Qipchoq termini va qipchoqlar haqidagi ma'lumotlar Alisher Navoiyning asarlarida ham koʻzga tashlanadi. Quyidagi baytda buni koʻrishimiz mumkin:

Ey Navoiy, manga bas ul sanami loʻlivash
Bekka qipchoqu ogʻar, shaxgʻu qiyotu bilgut [Дониёров 1968;30].

Qipchoq lahjasi vakillarining hozirgi avlodlari Mongoliya, Oltoy, Oʻrta Osiyo, Volga boʻyi hududlarida istiqomat qilishi haqida prof. S.Ashirboyevning "Oʻzbek dialektologiyasi" darsligida ham ma'lumot olish mumkin [Ashirboyev 2021;92]. Qipchoq lahjasi vakillari Oʻzbekiston Respublikasining Toshkent viloyati, Sirdaryo, Samarqand, Navoiy, Qashqadaryo, Surxandaryo, Jizzax viloyatlarida, Qozogʻistonning Soʻzoq tumanida, Turkistonning Suvnoq, Choʻrnoq qishloqlarida yashaydilar.

Biz yuqorida keltirgan X.Doniyorovning tadqiqotlaridagi ma'lumotlarni Prof. S.Ashirboyevning darsligi ham tasdiqlab turibdi.

boʻlmadi.

Samarqand viloyatidagi qipchoq areallarini belgilashda mustaqillik yillarida hudud shevalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning o‘rni ham beqiyos hisoblanadi. Bu davrga kelib, ayniqsa, 2016-2023-yillarda ko‘plab doktorlik va magistrlik ilmiy tadqiqot ishlari hamda ilmiy maqolalar yaratil(yozil)gan bular bizning ishimiz uchun ham asos vazifasini o‘taydi.

Samarqand viloyati qipchoq lahjasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalarini tahlil qilar ekanmiz, ushbu lahjaning o‘zbek tilshunosligi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Tadqiqotlar lahjaning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini atroflicha yoritib bergan bo‘lsa-da, hali o‘rganilishi lozim bo‘lgan jihatlar ham mavjudligini ko‘rsatadi. O‘zbek tilining qipchoq lahjasi har xil turkiy urug‘-qabila guruh vakillarini o‘z ichiga olgan. Bular orasida qipchoq, nayman, qangli, mitan, kal, laqay, uyshun, qoraqalpoq, tama, qishliq, qaziayaqli, qarg‘ali, bolg‘ali, ongut, qiyot, do‘rmon, qo‘ng‘irot, juz(yuz), qo‘shtamg‘ali, qirq, oyinli, qushchi, qorayontaq, beshkal, pisayz, kabi ko‘pgina urug‘lar mavjud [Дониёров 1968;8]. Demak, Samarqand arealida qipchoq lahjasiga taalluqli shevalar juda katta hududlarga tarqalgan.

Samarqand viloyati qipchoq lahjasi o‘zbek xalq og‘zaki ijodining muhim manbalaridan biri ekanligi ham kuzatishlar jarayonida vatadqiqotlar natijasida o‘z tasdig‘ini topdi. Qipchoq lahjada yaratilgan folklor namunalari xalqning turmush tarzi va madaniyatini o‘rganishda qimmatli manba hisoblanadi. Samarqand viloyatida yuqorida sanalgan qipchoq guruh sheva vakillaridan ko‘plab xalq dostonlarini kuylovchi Baxshilar yetishib chiqqan. Bunga misol qilib xalq baxshilaridan Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li (1872-1955), Muhammad Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan (1874-1941), Islom Nazar o‘g‘li (1874-1953), Abdulla Shoir Nurali o‘g‘li (1870-1975), Qurbon Ismoil o‘g‘li (1869-1940)[1]kabi el tanigan baxshilarni va ular kuylagan dostonlarni sanashimiz mumkin. Hozirgi kunda shevalar areal bosqichda o‘rganilayotgan bo‘lsa, albatta, bu ushbu baxshilar kuylagan xalq dostonlari namunalarnidagi dialektizmlar tadqiqi o‘z egasini kutib turgan ishlardan biridir.

Umuman olganda lahjalarning shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan omillarni tadqiq etishda areal yondashuvni qo‘llash maqsadga muvofiq. Bu esa o‘z navbatida lahjalar(sheva)ning nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-madaniy qiyofasini ham yoritishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Samarqand viloyati qipchoq lahjasini o‘rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Bu boradagi izlanishlar nafaqat o‘zbek tilshunosligi, balki jahon tilshunosligi rivojiga ham munosib hissa qo‘shadi. Kelajakda lahja tadqiqini yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish barcha tadqiqotchilarning muhim vazifasi sanaladi.

Adabiyotlar

Ashirboyev S. *O‘zbek dialektologiyasi.* – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 92.

Дониёров Х. *Ўзбек халқининг шажара ва шевалари*. – Тошкент:

[1]https://uz.wikipedia.org/wiki/Samarqand

Фан, 1968.
Қошғарий М. *Девону луғатит турк.* 1 т. – Тошкент: Фан, 1960. – Б. 428.
Mirsoatov T.Z. *O‘zbek tilining qirq shevasi.* – Toshkent, 1957. O‘zbek dialektologiyasidan materiallar. – B. 233.
Doniyorov X. *Qipchoq dialektlarining leksikasi.* – Toshkent, Fan. 1979. – B. 12.
Шоабдураҳмонов Ш.Ш. *Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари*. – Тошкент: Фан, 1962. – Б. 8.
Ражабов Н. *Ўзбек шевашунослиги*. – Toshkent: Ўқитувчи, 1996.
Турсунов У. *Самарқанд области ўзбек халқ шеваларитаснифининг материаллари.* Филология масалалари, тўплам, – Самарқанд, 1960.
Шоабдураҳмонов Ш. *Ўзбек шеваларининг лексик составини ўрганиш масалалари ҳақида*. “Ўзбек тили ва адабиёти масалалари” журнали, 2 сон. – Тошкент, 1958.
Дониёров Х. *Эски ўзбек адабий тили ва қипчоқ диалектлари*. – Тошкент, 1979. – Б. 122.

AREAS OF SAMARKAND KIPCHAK DIALECTS

Dilso‘z Rahmonova[1]

Abstract

The article covers the history of the study of the Kipchak dialect of the Samarkand region. The work carried out by dialectologists and the results achieved are analyzed. The appearance of the Kipchak group dialect in classifications, in particular, the Kipchak group dialects of the Samarkand region, their areas are considered. The article analyzes the scientific work carried out so far on the Samarkand area and comments on them. The specific aspects of the dialect are explained using examples. The results of the study show the importance of the Kipchak dialect of the Samarkand region for Uzbek linguistics. At the same time, the need for a more in-depth study of the dialect in the future is emphasized.

Key words: arel, Kipchak dialect, eastern group, western group, southern group, lexical features.

References

Ashirboyev S. *O‘zbek dialektologiyasi.* – Toshkent: Nodirabegim,

[1] *Dilso‘z Rahmonova* – Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU magistranti
E-pochta: rahmonovadilsoz410@gmail.com
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0004-8346-6136
For citation: *Rahmonova D.* 2025. "*Areas of Samarkand Kipchak dialects".* Uzbekistan. Language and Culture. Folklore. Dialectology. 2: 62-69. Doi. 10.52773/tsuull.uzlcfolklore.2025/LNVM9113

2021. – B. 92.
Дониёров Х. *Ўзбек халқининг шажара ва шевалари.* – Тошкент: Фан, 1968.
Қошғарий М. *Девону луғатит турк.* 1 т. – Тошкент: Фан, 1960. – Б. 428.
Mirsoatov T.Z. *O‘zbek tilining qirq shevasi.* – Toshkent, 1957. O‘zbek dialektologiyasidan materiallar. – B. 233.
Doniyorov X. *Qipchoq dialektlarining leksikasi.* – Toshkent, Fan. 1979. – B. 12.
Шоабдураҳмонов Ш.Ш. *Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари*. – Тошкент: Фан, 1962. – Б. 8.
Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. – Toshkent: Ўқитувчи, 1996.
Турсунов У. С*амарқанд область ўзбек халқ шевалари таснифининг материаллари.* Филология масалалари, тўплам, – Самарқанд, 1960.
Шоабдураҳмонов Ш. *Ўзбек шеваларининг лексик составини ўрганиш масалалари ҳақида.* “Ўзбек тили ва адабиёти масалалари” журнали, 2 сон. – Тошкент, 1958.
Дониёров Х. *Эски ўзбек адабий тили ва қипчоқ диалектлари*. – Тошкент, 1979. – Б. 122.

Jurnal 2017-yil 26-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan. Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. No 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi 103-uy. Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

E-mail: uzlangcult@gmail.com